

Men ekologik muammolarni hal qilaman



Biz hali maktab o'quvchilarimiz. Ammo kun kelib biz katta bo'lamiz va sayyoramizga g'amxo'rlik qilishimiz kerak. Shuning uchun, endi biz Yerdagi hayotni qanday qilib toza va yaxshiroq qilishni o'rganishimiz kerak.



Inson bugungi kunda qulay hayot tarziga o'rganib qolgan. Yildan-yilga yangi-yangi avtomobillar, elektr jihozlar, gadjetlar, yangi texnologiyalar paydo bo'lyapti. Biz borgan sari ko'proq zavod-fabrikalar, korxonalar quryapmiz, neft, temir, gaz qazib olyapmiz. Ammo Yer sayyorasining ahvoli yildan-yilga yomonlashib boryapti.





Birinchi muammo – maishiy chiqindilarning katta miqdori. Maishiy chiqindilar – plastik idishlar, o'ramlar, oziq-ovqat qoldiqlari, karton qadoqlar.

Savollarga javob bering va maishiy chiqindilar miqdorini qanday kamaytirishingiz haqida o'ylang.

1. Bu axlatlar suvga qanday qilib tushib qoldi?
2. Endi baliqlar va boshqa daryo hayvonlarining ahvoli nima bo'ladi?
3. Bu daryo uchun nima qilish mumkin? Unga qanday yordam berish mumkin?
4. Agar do'stingiz shisha idishini suvga tashlamoqchi bo'lsa, unga nima deysiz?



Daraxtlar biz uchun juda muhim. Ular kislorod ishlab chiqaradi, ko'plab hayvonlar va qushlarga boshpana beradi. Cho'l o'simliklari qum va tuzni joyida ushlab turishga yordam beradi. Quyuq shoxli baland daraxtlar shaharlarimiz ko'chalarida soya-salqin berib, havoni tozalaydi.






Biz hayotimizni qulay qildik: zavodlar murakkab uskunalar va mashinalarni yig'adi, fabrikalar bejirim kiyim va o'yinchoqlar ishlab chiqaradi, uylarimiz yorug' va issiq.

Bularning barchasi ishlashi uchun issiqlik elektr stansiyalarida ko'mir va gaz yoqiladi. Bu esa shahrimiz havosini ifloslantiradi. Biz elektr energiyasini rad eta olmaymiz, lekin uni tejashimiz mumkin.



Elektrni tejashga qanday yordam bera olamiz? Rasmga qarang. Bu yerda nechta qo'shimcha chiroq yoqilgan?





Bugun juda ko'p narsalar plastmassadan yasalyapti: plastik idishlar, sellofan xaltalar, bir martalik qoshiq, sanchqi va stakanlar. Ular juda qulay – bir marta ishlatib, tashlab yuboraverasiz. Bundan tashqari, zamonaviy texnologiya qismlari, avtomobillar va hatto mebellar plastmassadan tayyorlanyapti. Plastik buyumlar yog'och yoki metallardan tayyorlangan boshqa narsalarga qaraganda arzonroq.



Plastmassa yer va suvda taxminan 500 yil saqlanib qoladi. Afsuski, ko'plab qushlar va hayvonlar plastmassa bo'laklarini oziq-ovqat deb bilishadi. Plastik ham kichik, ham yirik hayvonlarni zaharlashi mumkin. Tabiatni bir marta ishlatiladigan plastik idishlar, polietilen paketlardan qanday qutqarishimiz mumkin?



Rasmni o'rganing va axlatni qanday saralashni eslang.



Mening kashfiyotlarim

1

Inson tabiatning bir qismidir.

2

O'simliklar hayotini o'rganadigan fan BOTANIKA deb ataladi.

3

FLORA nabotot olamidir. O'simliklarning yovvoyi, madaniy, sabzavot, meva, g'alla kabi turlari bo'ladi.

4

ZOOLOGIYA hayvonlarning hayotini o'rganadi.

5

FAUNA hayvonot olamidir. Hayvonlar yirtqich, o'txo'r bo'ladi, yovvoyi hayvonlar va uy hayvonlariga bo'linadi.

6

EKOLOGIYA insonlar, nabotot, hayvonot va mikroorganizmlarning hayotini va o'zaro munosabatini o'rganadigan fandır.

